

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.B.02.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

OCHILOV ULUG‘BEK ABDUXAMIDOVICH

**SAMARQAND SHAHRINING DENDROFLORASI VA ISTIQBOLLI
MANZARALI DARAXTLARNING BIOEKOLOGIK XUSUSIYATLARI**

03.00.05 – Botanika

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Ochilov Ulug‘bek Abduxamidovich

Samarqand shahrining dendroflorasi va istiqbolli manzarali daraxtlarning
bioekologik xususiyatlari 3

Очиллов Улугбек Абдухамидович

Дендрофлора города Самарканда и биоэкологические особенности
перспективных декоративных деревьев 21

Ochilov Ulugbek Abdukhamidovich

The dendroflora of the city of Samarkand and the bioecological features of
promising ornamental trees 39

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of published works 42

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.B.02.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

OCHILOV ULUG‘BEK ABDUXAMIDOVICH

**SAMARQAND SHAHRINING DENDROFLORASI VA ISTIQBOLLI
MANZARALI DARAXTLARNING BIOEKOLOGIK XUSUSIYATLARI**

03.00.05 – Botanika

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.3.PhD/B633 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.samdu.uz) va «Ziyonet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Haydarov Xislat Qudratovich**
Biologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Mavlonov Xudargan**
Biologiya fanlari doktori, professor

Baysunov Babir Xidirovich
Biologiya fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot: **O'zbekiston milliy universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi PhD 03/30.12.2019.B.02.08 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil «4» dekabr kuni soat 10⁰⁰ da majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet hiyoboni, 15-uy. Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Biokimyov instituti binosi 2-qavat majlislar zali. Tel.: (+99866) 239-11-40, faks (+99866) 239-11-51, E-mail: devonxona@samdu.uz).

Dissertatsiya bilan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (122 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.: (+99866) 239-11-51.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil «10» noyabr kuni tarqatildi.
(2024-yil «10» noyabr № 13 sonli reyestr bayonnomasi)



T.F.Rajabov

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash raisi, b.f.d.,

M.S.Kuziyev

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, b.f.f.d. (PhD), dotsent

S.X.O'roqov

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, b.f.d., dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyo miqyosida aholi sonining ko‘payib borayotganligi, yangi shaharlar, aholi yashash joylari, avtomobil yo‘llarini qurish hamda shahar urbanizatsiyasining jadal rivojlanishi jarayonida manzarali daraxtlarni tadqiq etish va ulardan samarali foydalanish botanikaning eng muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda biologik xilma-xillikni saqlash, o‘simliklar olamini muhofaza qilish, ulardan maqsadli foydalanish, yangi hududlarda ko‘kalamzorlashtirish, obodonlashtirish, ishlarini olib borish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan yangi hududlarni ko‘kalamzorlashtirishda manzarali o‘simliklarni aniqlash, manzaralilik xususiyatlari yuqori bo‘lgan, daraxt hamda buta turlarini to‘g‘ri tanlash, saqlab qolish, ko‘paytirish ularning bioekologik xususiyatlarini tadqiq etish ilmiy-amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi.

Jahonning yetuk ilmiy markazlarida aholi yashash hududlari va xiyobonlarini ko‘kalamzorlashtirishda manzaraliligi yuqori daraxt va butalarni ko‘paytirish, asriy daraxtlarni muhofaza qilish chora-tadbirlarini ishlab chiqish, introduksiya sharoitida ularni moslashishiga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada atrof muhit musaffoligini ta‘minlashda turli xiyobonlar, istirohat bog‘larini ko‘kalamzorlashtirishda, global iqlim o‘zgarishlarining salbiy oqibatlarining oldini olishda, atmosfera havosini tozalashda, sanoat va xalq xo‘jaligini qayta tiklanuvchi xomashyo resurslari bilan ta‘minlashda dendrofloraning ahamiyati katta hisoblanadi. Ayniqsa, *Paulownia tomentosa* (Thunb.) Steud., *Platanus orientalis* L., *Quercus robur* L., *Aesculus hippocastanum* L., *Catalpa bignonioides* Walter, *Platycladus orientalis* Endl., *Ulmus densa* Litv., va boshqa bir qancha istiqbolli manzarali daraxtlarni bioekologik xususiyatlari, turli ekologik sharoitlarda ko‘paytirish hamda yetishtirish, ko‘kalamzorlashtirishga joriy etish, plantatsiyalarini yaratishga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida hamda aholi yashash hududlarini keng ko‘lamli ko‘kalamzorlashtirish ishlarini amalga oshirishda tabiiy iqlim sharoitlariga mos keluvchi manzarali daraxt va buta turlarini, ularning bioekologik xususiyatlarini o‘rganish va muhofaza qilish chora-tadbirlarini ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida¹ “atrof-tabiiy muhitga ziyon yetkazadigan ekologik muammolarni oldini olish borasida tizimli chora-tadbirlar ko‘rish” bo‘yicha muhim va dolzarb vazifalar belgilab berilgan. Bu borada ko‘kalamzorlashtirishda qo‘llaniladigan manzarali daraxt va buta turlarini tur tarkibini aniqlash, turlar sonini kengaytirish, o‘lkamiz sharoitlariga moslasha oladigan nav va shakllarini izlab topish, ilmiy tajribalarga asoslangan texnologiya bo‘yicha parvarishlashni tatbiq etish, urug‘ unuvchanligi hamda manzaralilik xususiyatlarini aniqlash muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-dekabrda PF-46-son “Respublikada ko‘kalamzorlashtirish ishlarini jadallashtirish, daraxtlar muhofazasini yanada samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni bilan butun mamlakat miqyosida “Yashil makon” umummilliy loyihasi tatbiq etildi. Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 17-yanvardagi №43-sonli “Davlat o‘rmon fondiga kirmaydigan yerlarda daraxt va butalardan foydalanishni tartibga solish va ulardan foydalanish sohasida ruxsat berish tartibini yanada takomillashtirish to‘g‘risidagi” qarori hamda mazkur faoliyatlarga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishidagi tadqiqotlar muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. “Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Rivojlangan davlatlarning yirik shaharlari dendroflorasining taksonomik, geografik tahlili, fenologik, manzaralilik, bioekologik xususiyatlari haqidagi ma‘lumotlar xorijlik olimlardan Z.I.Irisxanova (2009), A.N.Bakalov (2015), Y.A.Deynega (2016), A.P.Belanova (2016), N.A.Molganova (2017), A.D.Pastushenko (2021) va boshqalarning ishlarida yoritilgan.

O‘zbekistonda 1934-yilda O‘rta Osiyoning dendroflorasi, N.I.Sherbakov, daraxt va butalarning O‘zbekistondagi tog‘, cho‘l va sug‘oriladigan dehqonchilik mintaqalaridagi tuproqlarni suv va shamol eroziyasidan himoya qilishda, sel oqimlariga qarshi kurashdagi roli F.N.Rusanov (1972), T.I.Slavkina (1972), A.U.Usmonov (1974), G.S.Kostelova (1974), manzarali daraxtlarning bioekologik xususiyatlari, manzaraliligi, introduksiyasi T.V.Esipova (2004), R.Babadjanov (2010), L.H.Yoziyev (2018), B.X.Baysunov (2018) va boshqa dendrolog olimlar tomonidan o‘rganilgan.

Lekin bu ma‘lumotlar Samarqand shahri dendroflorasining tur tarkibini va ayrim biologik xususiyatlarini ochib berish imkonini bermaydi. Shu sababdan, Samarqand shahrini ko‘kalamzorlashtirishda foydalaniladigan manzarali daraxtlarining tur tarkibi, geografik kelib chiqishi, fenologiyasi, urug‘larining unuvchanligi, manzaralilik xususiyatlari va istiqbollilik darajasini aniqlash hamda ko‘kalamzorlashtirishga tavsiyalar berish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq №SBio-03 “Janubiy-G‘arbiy O‘zbekiston florasining bioxilma-xilligini o‘rganish, innovatsion tadqiqotlar o‘tkazish va ularni muhofaza qilishning biologik asoslarini aniqlash” mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Samarqand shahri dendroflorasining tur tarkibi va hudud uchun istiqbolli manzarali daraxtlarning bioekologik xususiyatlarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Samarqand shahri hududidagi manzarali daraxtlarning turlar tarkibini aniqlash hamda asriy daraxtlarni inventarizatsiya etish va ularning koordinatasini aniqlash; manzarali daraxtlarning geografik kelib chiqishini aniqlash va tahlil etish; istiqbolli manzarali daraxtlarning fenologiyasini aniqlash va fenospektrini tuzish;

istiqbolli manzarali daraxtlarning urug'larini laboratoriya va dala sharoitida optimal unuvchanligini aniqlash;

daraxtlarni manzaralilik xususiyatini aniqlash va introduksion baholash.

Tadqiqotning obyekti sifatida Samarqand shahrini ko'kalamzorlashtirishda introduksiya qilingan *Cedrus libani* A.Rich., *Juniperus virginiana* L., *Picea abies* (L.) H.Kast., *Platycladus orientalis* L. *Liriodendron tulipifera* L., *Magnolia grandiflora* L., *Magnolia cylindrica* L., *Aesculus hippocastanum* L., *Albezia julibrissin* Durazz., *Cercis siliquastrum* L., *Quercus robur* L., *Betula verrucosa*, *Koelreuteria paniculata* Laxm., *Styphnolobium japonicum*, *Catalpa bignonioides* Walter., *Acer platanoides* L., *Tilia cordata* L., *Paulownia tomentosa* (Thunb.) Steud. kabi istiqbolli manzarali daraxt turlari olingan.

Tadqiqotning predmeti Samarqand shahri manzarali daraxtlarining taksonomiyasi, geografik tahlili, fenologiyasi, urug' unuvchanligi, manzaralilik xususiyatlari hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari Dissertatsiya tadqiqotlarida geobotanik, fenologik, sistematik, biomorfologik, statistik hamda introduksion baholashning zamonaviy usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Samarqand shahri manzarali daraxtlari 29 oila, 60 turkum va 128 turi aniqlanib, shundan 22 turga mansub 700 dan ortiq asriy daraxtlarning koordinatalari aniqlangan.

aniqlangan manzarali daraxtlar Eron-Turon, Shimoliy Amerika-Atlantik, O'rtayer dengizi geografik viloyatlari florasiga mansubligi hamda ularning istiqbollilik darajalari ochib berilgan;

istiqbolli manzarali daraxtlarning optimal urug' unuvchanligi laboratoriya va dala sharoitida aniqlangan;

daraxtlarning manzaralilik darajasi 64% daraxtlar juda yuqori, 10% daraxtlar yuqori, 26% o'rtacha manzaralilikka ega ekanligi va ularning fenologiyasi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Samarqand shahrining asriy manzarali daraxtlarini koordinatasi aniqlangan va ularga Qr-code yaratilgan hamda muhofaza qilish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan;

Samarqand shahrining manzarali daraxtlarini urug'larini ko'paytirish hamda manzaralilik xususiyatini aniqlab, ko'kalamzorlashtirishda foydalanish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotlar mobaynida olingan natijalar to'g'risidagi ma'lumotlar yetakchi ilmiy nashrlarda chop qilinganligi,

olingan natijalar davlat tabiatni muhofaza qilish tashkilotlari faoliyatiga kiritilganligi, yig'ilgan gerbariy namunalari "Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti gerbariysi" kolleksiyasi fondida saqlanayotganligi, tadqiqot natijalari tegishli davlat tuzilmalari tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ilk bor Samarqand shahrining dendroflorasi tur tarkibi va geografik kelib chiqishi tahlil qilinganligi, asriy daraxtlarning koordinatalari olinganligi, ayrim manzarali daraxtlarning urug'larining optimal unish harorati va ekish chuqurligi aniqlanganligi, manzaralilik xususiyati va introduksion baholanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati introduksiya qilingan istiqbolli manzarali daraxt turlarining manzaralilik xususiyati, fenologiyasi va asriy daraxtlarning hozirgi holati aniqlanganligi, sun'iy plantatsiyalar yaratish hamda ko'kalamzorlashtirishda turlarni to'g'ri tanlashga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarini joriy qilinishi. Samarqand shahri dendroflorasi va ayrim istiqbolli manzarali daraxtlarning bioekologik xususiyatlari bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Samarqand shahri hududida o'sayotgan manzarali daraxtlarning ro'yxati, ularning istiqbollilik darajasi hamda introduksiya qilingan 15 turga mansub asriy manzarali daraxtlarning botanik tavsifi, holati, yoshi va kelib chiqish vatani, har bir daraxtning qr-code asosida ishlab chiqilgan amaliy tavsiyanoma Samarqand viloyati Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi boshqarmasi faoliyatiga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining 2023-yil 21-noyabrdagi 03-03/3-7150-son ma'lumotnomasi). Natijada Samarqand shahridagi manzarali daraxtlarni monitoring qilish, ekologik barqarorligini ta'minlash va shahar hududida amalga oshiriladigan ko'kalamzorlashtirish chora-tadbirlari samaradorligini oshirish imkonini bergan;

Samarqand shahri sharoitida istiqbolli manzarali daraxtlarning fenologiyasi, urug'larning laboratoriyada optimal unish harorati, urug'larning sifat ko'rsatkichi, dala sharoitlarida optimal ekish chuqurligi, unuvchanligi asosida ishlab chiqilgan amaliy tavsiyanoma Samarqand davlat o'rmon xo'jaligi faoliyatiga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining 2023-yil 21-noyabrdagi 03-03/3-7150-son ma'lumotnomasi). Natijada Samarqand shahrida introduksiya qilingan ayrim istiqbolli manzarali daraxtlarni ko'paytirish, sog'lom ko'chatlar yetishtirish va plantatsiyalarini yaratish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Mazkur tadqiqot ishining natijalari 7 ta, jumladan, 2 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 12 ta ilmiy ish nashr etilgan, shundan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarida 5 ta maqola, jumladan, 4 ta respublika va 1 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi: Dissertatsiya tarkibi kirish, to‘rt bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Ishning umumiy hajmi 98 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI


Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi hamda amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilinishi, nashr qilingan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Samarqand shahrida manzarali daraxtlarni ekish va ko‘kalamzorlashtirish tarixi**” deb nomlangan birinchi bobida Samarqand shahrini ko‘kalamzorlashtirish tarixi keng tahlil qilingan. Bobning birinchi bo‘limida Samarqand shahrini ko‘kalamzorlashtirish tarixi Temuriylar davridan oldin va undan keyingi davrga bo‘lib tahlil qilingan. Unda Amir Temur va Temuriylar davrida Samarqand shahrida bunyod etilgan bog‘lar, introduksiya etilgan manzarali daraxtlar to‘g‘risida ma‘lumotlar keltirilgan.

Bobning ikkinchi bo‘limi “*Manzarali daraxtlarning shahar ekotizimidagi ahamiyati*” deb nomlanib, unda shahar ekotizimida daraxtlarning zarurati shuningdek, landshaft dizayni hamda manzarali bog‘dorchilik uchun ham muhim ahamiyatga ega bo‘lgan manzarali daraxtlar to‘g‘risida ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Tadqiqot olib borilgan hududning tabiiy, tuproq-iqlim sharoiti tadqiqot obyekti va uslublari**” nomli ikkinchi bobida Samarqand shahrining tabiiy sharoiti, tuproqlari, tadqiqot olib borilgan yillardagi iqlim ma‘lumotlari, tadqiqotlar obyekti va metodlari bayon etilgan. Bobning birinchi bo‘limida Samarqand shahri Zarafshon daryosi havzasining o‘rta qismida joylashganligi, iqlimi kontinental, quyosh radiatsiyasining kuchliligi, sutkalik va mavsumiy o‘zgarib turishi, uzoq davom etadigan jazirama issiq va quruq yoz mavsumi hamda bir muncha sovuq qish bilan tavsiflanadi. Zarafshon vodiysi, shu jumladan, Samarqand viloyati tuproq-iqlim sharoiti manzarali daraxtlari uchun qulay hisoblanib, bunday hududlarni obodonlashtirish uchun turli mintaqalardan keltirilgan manzarali daraxtlarni yetishtirish mumkinligi qayd etilgan. Yog‘ingarchilik miqdori oylar bo‘yicha ham keskin farq qiladi. Ma‘lumki, tog‘oldi tekisliklarining pastliklarida yog‘ingarchilik tog‘li mintaqalarga qaraganda ancha kam yog‘adi. Qishloq xo‘jalik ekinlarining vegetatsiyasi davrida yog‘ingarchilikning eng kam bo‘lishi, asosan, iyun-avgust oylariga to‘g‘ri keladi. Samarqand shahrining umumiy maydoni 12300 ga, aholisi 2023 yil 1 yanvar holatiga ko‘ra 573200 kishini tashkil etadi (1-rasm).

Bobning ikkinchi bo‘limida tadqiqot obyekti va uslublari yoritilgan. Unga ko‘ra tadqiqot obyekti qilib Samarqand shahrini ko‘kalamzorlashtirishda foydalanib kelinayotgan ayrim istiqbolli daraxtlar tanlab olindi.



1-rasm. Tadqiqot hududining xaritasi


Ilmiy tadqiqotlar davomida introduksiyada keng foydalanib kelinayotgan zamonaviy va klassik uslublardan foydalanildi. Manzarali daraxtlarning turlar tarkibi, fenologiyasi, urug' unuvchanligi, manzaralilik xususiyati va introduksion baholashni o'rganishga qaratilgan tadqiqotlar 2020-2023-yillar davomida o'tkazildi.

Samarqand shahridagi manzarali daraxtlarning turlar tarkibini aniqlash maqsadida 700 dan ortiq namunalar yig'ildi hamda ularning fotosuratlarini olindi. Ushbu manzarali daraxt namunalarini sistematik tarkibini aniqlashda va nomlashda "O'zbekiston florasini", "O'rta Osiyo o'simliklar aniqlagichi", A.Hamidov, M.Nabiyev, T.Odilov "O'zbekiston o'simliklar aniqlagichi", M.M.Nabiyev, R.Y.Kazakbayev «Определитель декоративных деревьев и кустарников Узбекистана» aniqlagichidan foydalanildi. Taksonlarning (oila, turkum, tur) yangilangan ilmiy nomlariga aniqlik kiritishda International Plants Names Index, Global Biodiversity Information Facility, Plants of the World Online manbalariga asoslandi.

Asriy daraxtlarning koordinatasi marshrutli tadqiqot uslubida aniqlandi. Fenologik kuzatishlar I.N.Beydeman (1960) uslubida kuzatildi va fenospektri tuzildi. Daraxtlarni manzaralilik xususiyati J.A.Vardanyan (2017) metodi bo'yicha baholandi hamda manzaraliligi 4 ta guruhga (past, o'rta, yuqori va juda yuqori) ajratib tahlil qilindi. Obyektlarni introduksion baholash P.P.Lapin, S.V.Sidneva (1973), va N.I.Shtonda (2016) uslublaridan foydalanildi.


Dissertatsiyaning uchinchi bobi "**Samarqand shahrini manzarali daraxtlarining tur tarkibi, geografiyasi, fenologiyasi va chang donasining tuzilishi**" deb nomlanib tadqiqot olib borilgan hududda 128 turga mansub mansub manzarali daraxtlar uchrashi kuzatildi. Bular 29 oila, 60 turkumga mansub bo'lib,

shundan Pinophyta – Qarag‘aytoifalar bo‘limiga mansub daraxtlar 5 ta oila, 16 turkum hamda 34 tur ekanligi aniqlandi (2-rasm).



2-rasm. Pinophyta bo‘limi oilalarining turlar soni va % hisobida

Yopiq urug‘li (Magnoliyatoifa) lar bo‘limiga mansub manzarali daraxtlar esa 24 oila, 44 turkum va 94 tur ekanligi kuzatildi (3- rasm)



3-rasm. Magnoliophyta bo‘limi oilalarining turlar soni

Tahlillar natijasiga ko‘ra turlarga boyligi jihatidan Samarqand shahrini ko‘kalamzorlashtirishda foydalaniladigan manzarali daraxtlarni oilalar bo‘yicha tahlil qilganimizda 29 ta oilaga mansubligi aniqlandi, shundan ochiq urug‘lilar 5 oila, yopiq urug‘lilar 24 ta oilaga mansub.

Cupressaceae - Sarvdoshlar 14%, Fagaceae – Qoraqayindoshlar 9%, Ulmaceae - Qayrag‘ochdoshlar 9%, Pinaceae - Qarag‘aydoshlar 8% va Rosaceae -

Ra'nodoshlar oilasiga 7% mansub daraxtlar turlar soni bo'yicha yetakchilik qilganligi aniqlandi (1-jadval).


1-jadval

Samarqand shahrining manzarali daraxt oilalarini turkum va turlari soni

№	Oilalar	Mahalliy		Introduksiya qilingan		Jami		
		turkum	tur	turkum	tur	turkum	tur	%
1	Cupressaceae	1	2	7	16	7	18	14
2	Fagaceae	-	-	2	12	2	12	9
3	Pinaceae	-	-	4	11	4	11	8
4	Rosaceae	-	-	6	9	6	9	7
5	Ulmaseae	1	2	2	6	2	8	6
6	Salicaceae	2	6	1	2	2	8	6
7	Fabaceae	-	-	6	8	6	8	6
8	Aceraceae	1	3	1	4	1	7	5
9	Betulaceae	2	3	3	4	4	7	5
10	Tiliaceae	-	-	1	6	1	6	4
11	Oleaceae	1	2	1	4	1	6	4
12	Magnoliaceae	-	-	2	4	2	4	3
13	Moraceae	1	3	2	2	3	5	3
14	Taxodiaceae	-	-	3	3	3	3	2
15	Bignoniaceae	1	1	1	1	2	2	1,5
16	Hippocastanaceae	-	-	1	1	1	1	0,7
17	Taxaceae	-	-	1	1	1	1	0,7
18	Caprifoliaceae	1	1	-	-	1	1	0,7
19	Elaeagnaceae	1	1	-	-	1	1	0,7
20	Platanaceae	-	-	1	1	1	1	0,7
21	Simaroubaceae	-	-	1	1	1	1	0,7
22	Lauraceae	-	-	1	1	1	1	0,7
23	Ginkgoaceae	-	-	1	1	1	1	0,7
24	Celastraceae	-	-	1	1	1	1	0,7
25	Rhamnaceae	1	1	-	-	1	1	0,7
26	Sapindaceae	-	-	1	1	1	1	0,7
27	Scrophulariaceae	-	-	1	1	1	1	0,7
28	Altingiaceae	-	-	1	1	1	1	0,7
29	Meliaceae	-	-	1	1	1	1	0,7
Jami:		13	24	53	104	60	128	100

Bobning ikkinchi bo'limi "Samarqand shahridagi manzarali daraxtlarni tabiiy hududlariga" bag'ishlangan. Manzarali daraxtlarni tahlil qilganimizda 13 ta turkumga mansub 24 ta turi mahalliy bo'lib, jami turlarni 19 % ini tashkil qiladi. Samarqand shahriga introduksiya qilingan manzarali daraxtlar esa 53 turkumga

mansub 104 ta turdan iboratligi aniqlandi. Bu jami turlarni 81 % ini tashkil qilishi kuzatildi (4-rasm).



4-rasm. Mahalliy va introduksiya qilingan turlar (soni hamda % hisobida)


Samarqand shahrini ko'kalamzorlashtirishda foydalanib kelinayotgan manzarali daraxtlarni geografik viloyatlar bo'yicha tahlil qilganimizda eng ko'p tur Eron-Turon (26 tur 21%), Shimoliy Amerika-Atlantik (15 tur 11 %) hamda O'rtayer dengizi (14 tur, 10%) geografik viloyatlari florasiga mansubligi aniqlandi (2-jadval).

2-jadval

Manzarali daraxtlarni geografik hududlar bo'yicha taqsimlanishi


№	Floristik rayonlar	Turlar soni		
		Pinophyta	Magnoliophyta	Jami turlar
1	Eron-Turon	5	21	26
2	Shimoliy Amerika-Atlantika	4	11	15
3	O'rtayer dengizi	4	10	14
4	Sirkumboreal	2	9	11
5	Sharqiy Osiyo	2	6	8
6	Madrean	1	2	3
7	Maleziya	-	1	1
8	Hind, Hindixitoy	-	1	1
9	Sudan-Zambiya va Hind	-	1	1

Samarqand shahridagi manzarali daraxtlarni 83 %i Eron-Turon, Shimoliy Amerika-Atlantik, O'rtayer dengizi va Sirkumboreal floristik viloyatlaridan kelib chiqqanligini aniqlandi (5-rasm).



5-rasm. Manzarali daraxtlarni floristik hududlar bo'yicha taqsimlanishi


Samarqand shahrida o'sayotgan Cupressaceae oilasining 18 turidan 2 ta turi mahalliy bo'lib, oilaning 11% ini tashkil etadi hamda oilaning 16 turi xorijiy mamlakatlardan introduksiya qilinganligi aniqlanib, bu oilaning 89% ini tashkil qilganligi aniqlandi. Ulmaceae oilasi jami 8 turdan iborat bo'lib, shundan 2 ta turi mahalliy hisoblanib, oilaning 25% ini, 6 ta turi introduksiya qilinganligi aniqlanib, oilaning 75% ini tashkil etishi aniqlandi. Salicaceae oilasi ham 8 turdan iborat bo'lib, shundan 6 ta turi mahalliy bo'lib, oilaning 75% ini tashkil qilganligi aniqlandi.



6-rasm. Mahalliy va introduksiya qilingan turlarning miqdoriy ko'rsatkichi

2 ta turi xorijiy mamlakatlardan introduksiya qilinganligi aniqlanib, oilaning 25% ini tashkil qilganligini ko'rishimiz mumkin. Aceraceae oilasi vakillari 7 ta turdan iborat bo'lib, shundan 3 tasi mahalliy tur ekanligi aniqlanib, oilaning 42,8% ni, 4 ta turi introduksiya qilingan bo'lib, 57,2% ekanligi aniqlandi. Betulaceae oilasi ham 7 ta tur bo'lib, shundan 3 ta turi mahalliy hisoblanib, 42,8% ni, 4 turi introduksiya qilingan bo'lib, 57,2% ni tashkil qilganligi aniqlandi (6-rasm).

Bobning uchinchi bo‘limi “**Samarqand shahrining asriy daraxtlari va manzarali daraxtlarning uchrash darajasi**” deb nomlanadi, Kuzatishlarimizga asosan Samarqand shahrining asriy daraxtlarini shu kungacha saqlangan turlari 22 tur 700 dan ortiq asriy daraxtlar bo‘lib, shundan 350 tupdan ortig‘i *Platanus orientalis* L. hisoblanadi. Bu jami asriy daraxtlarning deyarli 50% dan ortig‘ini tashkil qiladi. *Cedrus libani*, *Sequajadendron giganteum*, *Celtis caucasica*, *Gumnocladus dioica*, *Styphnolobium japonicum*, *Pistacia vera*, *Ziziphus jujuba* kabi daraxtlarni shaharda yagona asriy tuplari mavjud.



7-rasm. Samarqand shahrida asriy daraxtlarning uchrash soni

Bobning to‘rtinchi bo‘limi “**Samarqand sharoitida ayrim istiqbolli manzarali daraxtlarning fenologiyasi va chang donasining tuzilishiga**” bag‘ishlangan. Biz yillik fenologik kuzatishlarni *Liriodendron tulipifera*, *Magnolia grandiflora*, *Magnolia cylindrica*, *Aesculus hippocastanum*, *Albezia julibrissin*, *Gleditsia triacanthos*, *Cercis siliquastrum*, *Quercus robur*, *Ailanthus althissima*, *Alnus glutinosa*, *Betula verrucosa*, *Koelreuteria paniculata*, *Styphnolobium japonicum*, *Buxus sempervirens*, *Catalpa bignonioides*, *Acer pubescens*, *Tilia cordata*, *Paulownia tomentosa* kabi o‘simliklarda olib borildi. *Liriodendron tulipiferada* vegetatsiyani boshlanishi fevral oyining oxiri mart oyining boshlaridan boshlanishi (havo haroratiga bog‘liq) kuzatildi. Barglarning hosil bo‘lishi mart oyining 2-dekadasini oxirlaridan boshlanib, may oyining 1-dekadasini oxirlarigacha davom etadi. Gullarini ochilish jarayoni aprel oyining 3-dekadasidan may oyini 3-dekadasigacha davom etishi kuzatildi. May oyining 3-dekadasidan boshlab mevalarni hosil bo‘lishi boshlanadi. Urug‘larining yetilishi sentabr oyining 3-dekadasidan oktabr oyining 3-dekadasigacha davom etganligi kuzatildi. Barglarning to‘kilishi oktabr oyini 1-dekadasidan boshlab noyabr oyining 3-dekadasigacha davom etishi kuzatildi.

M.grandiflora da yangi barglarning hosil bo'lishi mart oyining 2-dekadasidan boshlanib, aprel oyining 3-dekadasigacha davom etganligi kuzatildi. Gullarini ochilish jarayoni may oyining 1-dekadasini o'rtalaridan iyun oyini 2-dekadasining oxirlarigacha davom etganligi aniqlandi. Iyun oyining 3-dekadasidan mevaga kirishi boshlanib, iyul oyining 2-dekadasigacha davom etishi kuzatildi. Mevalarni yetilishi esa iyul oyining 2-dekadasidan sentabr oyining 1-dekadasigacha davom etganligi kuzatildi. Urug'larining yetilishi sentabr oyining 1-dekadasidan sentabr oyining 3-dekadasini oxirlarigacha davom etganligi kuzatildi. *M.grandiflora* doimiy yashil manzarali daraxt bo'lganligi sababli barglarini bir vaqtda to'kmaydi.

M.cylindrica da vegetatsiyani boshlanishi fevral oyi 2-dekadasining o'rtalaridan boshlanishi aniqlandi. Gullarini ochilish jarayoni fevral oyi 3-dekadasining o'rtalaridan boshlanib mart oyining 3-dekadasigacha davom etganligi kuzatildi. Barglarning hosil bo'lishi mart oyining 3-dekadasidan boshlanib, aprel oyining 3-dekadasigacha davom etganligi aniqlandi. Mevalarining hosil bo'lishi mart oyining 3-dekadasini o'rtalaridan aprel oyining 3-dekadasini oxirlarigacha davom etganligi kuzatildi. Mevalarni yetilishi esa may oyini 1-dekadasini o'rtalaridan boshlanib, avgust oyini 3-dekadasigacha davom etishi kuzatildi. Urug'larining yetilishi avgust oyining 3-dekadasidan sentabr oyining 3-dekadasigacha davom etganligi tadqiqotlarimiz natijasida aniqlandi.

C.siliquastrum Gullarini ochilish jarayoni fevral oyining 3-dekadasidan mart oyini 2-dekadasini oxirlarigacha davom etganligi aniqlandi. Yangi barglarning hosil bo'lishi mart oyining 3-dekadasidan boshlanib, aprel oyining 3-dekadasigacha davom etganligi kuzatildi. Aprel oyini 1-dekadasidan mevaga kirishi boshlanib, may oyining 2-dekadasigacha davom etishi kuzatildi. Mevalarni yetilishi esa may oyining 3-dekadasidan sentabr oyining 1-dekadasigacha davom etganligi kuzatildi. Urug'larining yetilishi sentabr oyining 1-dekadasidan oktabr oyining 1-dekadasigacha davom etganligi kuzatildi. Barglarning to'kilishi noyabr oyining 1-dekadasidan boshlab dekabr oyining 1-dekadasigacha davom etishi kuzatildi.

P.tomentosa da gullarini ochilish jarayoni aprel oyining 1-dekadasidan may oyini 2-dekadasini oxirlarigacha davom etganligi aniqlandi. Yangi barglarning hosil bo'lishi aprel oyining 3-dekadasidan boshlanib, iyun oyining 1-dekadasigacha davom etganligi kuzatildi. Iyun oyini 1-dekadasidan mevaga kirishi boshlanib, iyun oyining 3-dekadasigacha davom etishi kuzatildi. Mevalarni yetilishi esa iyul oyining 3-dekadasidan sentabr oyining 1-dekadasigacha davom etganligi kuzatildi. Urug'larining yetilishi sentabr oyining 1-dekadasidan oktabr oyining 1-dekadasini oxirlarigacha davom etganligi kuzatildi. Barglarning to'kilishi noyabr oyining 2-dekadasidan boshlab dekabr oyini 1-dekadasigacha davom etishi kuzatildi.

A.julibrissin barglarning hosil bo'lishi aprel oyining 1-dekadasidan boshlanib, may oyining 2-dekadasigacha davom etganligi kuzatildi. Gullarini ochilish jarayoni may oyining 1-dekadasining o'rtalaridan sentabr oyining 1-dekadasini oxirlarigacha davom etganligi aniqlandi. Iyul oyining 3-dekadasidan mevaga kirishi boshlanib, sentabr oyining 2-dekadasigacha davom etishi kuzatildi. Mevalarni yetilishi esa sentabr oyining 3-dekadasidan oktabr oyining 2-dekadasigacha davom etganligi kuzatildi. Urug'larining yetilishi oktabr oyining 2-dekadasidan noyabr oyining 2-dekadasini oxirlarigacha davom etganligi kuzatildi. Barglarning to'kilishi noyabr

oyining 2-dekadasidan boshlab dekabr oyining 1-dekadasigacha davom etishi kuzatildi

S.japonicum da yangi barglarning hosil bo'lishi aprel oyining 1-dekadasidan boshlanib, may oyining 3-dekadasigacha davom etganligi kuzatildi. Gullarini ochilish jarayoni iyun oyining 1-dekadasini o'rtalaridan avgust oyini 2-dekadasini oxirlarigacha davom etganligi aniqlandi. Iyul oyining 1-dekadasidan mevaga kirishi boshlanib, iyul oyining 3-dekadasigacha davom etishi kuzatildi. Mevalarni yetilishi esa avgust oyini 1-dekadasidan sentabr oyining 3-dekadasigacha davom etganligi kuzatildi. Urug'larining yetilishi sentabr oyining 3-dekadasidan oktabr oyining 3-dekadasining oxirlarigacha davom etganligi kuzatildi. Barglarning to'kilishi noyabr oyini 1-dekadasidan boshlab dekabr oyining 1-dekadasigacha davom etishi kuzatildi.

A.hippocastanum barglarning hosil bo'lishi mart oyining 2-dekadasidan boshlanib, aprel oyining 2-dekadasigacha davom etganligi kuzatildi. Gullarini ochilish jarayoni aprel oyining 1-dekadasidan may oyini 2-dekadasini oxirlarigacha davom etganligi aniqlandi. May oyining 3-dekadasidan mevaga kirishi boshlanib, iyun oyini 2-dekadasigacha davom etishi kuzatildi. Mevalarni yetilishi esa iyun oyining 2-dekadasidan sentabr oyining 2-dekadasigacha davom etganligi kuzatildi. Urug'larining yetilishi sentabr oyining 2-dekadasidan oktabr oyining 1-dekadasini oxirlarigacha davom etganligi kuzatildi. Barglarning to'kilishi noyabr oyining 1-dekadasidan boshlab dekabr oyining 1-dekadasigacha davom etishi kuzatildi.

C.bignonioides yangi barglarning hosil bo'lishi mart oyining 2-dekadasidan boshlanib, aprel oyining 3-dekadasigacha davom etganligi kuzatildi. Gullarini ochilish jarayoni aprel oyining 3-dekadasini o'rtalaridan may oyini 2-dekadasini oxirlarigacha davom etganligi aniqlandi. May oyining 3-dekadasidan mevaga kirishi boshlanib, iyun oyini 2-dekadasigacha davom etishi kuzatildi. Mevalarning yetilishi esa iyul oyining 2-dekadasidan sentabr oyining 1-dekadasigacha davom etganligi kuzatildi. Urug'larining yetilishi sentabr oyining 1-dekadasidan oktabr oyining 1-dekadasini oxirlarigacha davom etganligi kuzatildi. Barglarning to'kilishi oktabr oyining 1-dekadasidan boshlab dekabr oyining 1-dekadasigacha davom etishi kuzatildi.

Tadqiqotlarimizda manzarali daraxtlarni chang donalarini tuzilishini aniqlash maqsadida Samarqand shahrida o'sib turgan *A.hippocastanum*, *A.julibrissin*, *Cercis siliquastrum* va *S.japonicum*ning chang donalarini laboratoriyada skanerlovchi elektron mikroskop yordamida kuzatildi. Ushbu daraxtlar Samarqand shahrini ko'kalamzorlashtirishda manzaralilik xususiyatlari juda yuqori bo'lganligi sababli Istiroxat bog' va xiyobonlarda, hamda yo'l yoqalarida keng miqyosda qo'llanilmoqda. *A.hippocastanum* chang donasi o'rtacha kattalikda bo'lib, hajmi 26,4 μm , shakli tuxumsimon, exina qalinligi 1,97 μm ga teng ekanligi aniqlandi. *A.julibrissin* chang donasining hajmi *A.hippocastanum* changlariga qaraganda ancha yirik bo'lib, hajmi 123,4 μm , shakli sharsimon sirti g'adir-budur, exina qalinligi 0,87 μm ni tashkil qiladi, *S.japonicum* chang donalarining hajmi biroz kichikroq 12,4 μm ekanligi kuzatildi. Shakli uchburchaksimon shaklga ega bo'lib, exina qalinligi 1,61 μm . *C.siliquastrum* chang donalari o'rtacha kattalikda bo'lib, 41,8 μm ekanligi

aniqlandi, shakli sharsimon, uchta burchagi ozroq bo‘rtib chiqqan, exina qalinligi 1,06 μm ga teng ekanligi aniqlandi.


Dissertatsiyaning to‘rtinchi bobi “**Ayrim istiqbolli manzarali daraxtlarning biologik xususiyatlari, introduksion baholash**” deb nomlanib, tadqiqotlarimiz asosan manzarali daraxtlarni biologik xususiyatlariga qaratilgan. Bobning birinchi bo‘limida ayrim manzarali daraxtlarni urug‘larini optimal unish harorati va optimal ekish chuqurligi aniqlangan. Bunga ko‘ra *Cedrus libani*, *Juniperus virginiana*, *Picea abies*, *Platyclusus orientalis* urug‘larining optimal unish harorati 20-25 $^{\circ}\text{C}$. *Acer platanoides*, *Catalpa bignonioides*, *Albizia julibrissin*, *Liriodendron tulipifera*, *Magnolia grandiflora*, *Tilia cordata*, *Paulownia tomentosa*, *Koelreuteria paniculata*, *Cercis siliquastrum*da urug‘larini optimal unish harorati 25-30 $^{\circ}\text{C}$ ekanligi kuzatilgan. Manzarali daraxt urug‘larining unishiga ekish chuqurligi katta ta’sir ko‘rsatadi. Tadqiqotlarimizda qo‘ng‘ir eman urug‘larini 1 sm, 5 sm, 10 sm, 15 sm chuqurliklarga, chirindiga boy qora qumli tuproqqa ekildi. 1-5 smli chuqurlikda ekilgan urug‘larni 30 %i unib chiqqanligi kuzatildi. 6-10 sm chuqurlikka ekilgan urug‘larning 76 %i, 11-15 smli chuqurlikka ekilgan urug‘larning 10 %i va 16-20 smli chuqurlikka ekilgan urug‘larning 4 %i unib chiqqanligi kuzatildi. Xulosa qilib aytganda, turli chuqurliklarda ekilgan urug‘larning unuvchanligi 6-10 sm chuqurlikda yuqori, ya’ni 76 %i unib chiqqanligi kuzatildi (4-jadval).

4-jadval

Samarqand sharoitida ayrim istiqbolli manzarali daraxtlarning urug‘larining unuvchanligi

O‘simlikning nomi	Urug‘ning ekish chuqurligi, sm							
	1		5		10		15	
	Ungan urug‘lar	%	Ungan urug‘lar	%	Ungan urug‘lar	%	Ungan urug‘lar	%
<i>Juniperus virginiana</i>	18±2	36	12 ±2	24	-	-	-	-
<i>Picea abies</i>	28±2	56	4±1	8	-	-	-	-
<i>Platyclusus orientalis</i>	43±1	86	18±1	36	-	-	-	-
<i>Koelreuteria apiculata</i>	35±3	70	28±2	56	-	-	-	-
<i>Albezia julibrissin</i>	30±2	60	14±1	28	-	-	-	-
<i>Cercis siliquastrum</i>	44±2	88	21±2	42	-	-	-	-
<i>Quercus robur</i>	15 ±1	30	38 ±2	76	27± 1	54	2±0,5	4
<i>Aesculus hippocastanum</i>	6±1	12	18±1	36	36±2	72	24±2	48
<i>Catalpa bignonioides</i>	33±2	66	24±1	48	-	-	-	-
<i>Acer platanoides</i>	38±2	76	16±1	32	-	-	-	-
<i>Liriodendron tulipifera</i>	4±1	8	6±1	12	-	-	-	-
<i>Magnolia grandiflora</i>	6±1	12	5±1	10	-	-	-	-

Bobning ikkinchi bo‘limi Manzarali daraxtlarning manzaralilik xususiyatini baholashga bag‘ishlangan bo‘lib, Samarqand shahriga introduksiya qilingan daraxtlardan eng manzarali turlarni aniqlab olishimiz uchun yuqoridagi daraxt va butalarni manzaralilik xususiyatini baholash metodikasi asosida ballar qo‘yildi. Samarqand shahrini ko‘kalamzorlashtirish maqsadida introduksiya qilingan daraxtlardan 39 turining manzaralilik xususiyatini kuzatganimizda, ulardan 25 turi juda yuqori, 4 turi yuqori hamda 10 turi o‘rtacha manzaralilik xususiyatiga ega ekanligi namoyon bo‘ldi (8-rasm).



8-rasm. Daraxtlarning manzaralilik xususiyati bo‘yicha taqsimlanishi

Daraxtlarning 39 turidan 64%i juda yuqori, 10%i yuqori, 26%i o‘rtacha manzaralilik xususiyatiga ega ekanligi aniqlandi.

Bobning uchinchi bo‘limida daraxtlarni introduksion baholash va ko‘kalamzorlashtirishda foydalanishga bag‘ishlangan bo‘lib, unga ko‘ra o‘simliklarni introduksion baholash ularning turli ekologik sharoitda o‘sishi, rivojlanishi, hosildorlik, chidamlilik ko‘rsatkichlarining taqqoslanishi kabi mezonlar asosida amalga oshiriladi. Introdusentlar 100 ballik shkala asosida 6 ta guruhga ajratilgan: I – To‘liq istiqbolli (91-100), II – istiqbolli (76-90), III – kamroq istiqbolli (61-75), IV – kam istiqbolli (41-60), V – istiqbolli emas (21-40), VI – umuman yaroqsiz (5-20). Tadqiqotlar doirasida introduksiya qilingan manzarali daraxtlardan istiqbolli bo‘lgan turlarini ajratib olish uchun yuqoridagi introduksion baholash metodikasi bo‘yicha ballar qo‘yildi. Mazkur metod asosida tanlab olingan manzarali tur va formalarning ball ko‘rsatkichlari turlarning 15 tasi 90-100 ballgacha to‘plab, to‘liq istiqbolli ekanligi aniqlandi. Faqatgina *G.biloba* L. 67, va *T.baccata* 74 ball to‘plab kamroq istiqbolli ekanligi kuzatildi. Ushbu metodikadan tanlangan turlarning nisbatan kam ball to‘plashiga asosiy sabablardan biri – 8-banddagi ko‘rsatkichlari, ya‘ni “generativ rivojlanish qobiliyati” introduksiya qilingan ochiq urug‘lilarning bizning iqlim sharoitlarimizda pastligidir.

Manzarali daraxtlar orasida *A.hippocastanum*, *Q.robur*, *C. bignonioides*, *P.orientalis*, *K.apiculata*, *A.julibrissin*, *C.siliquastrum*, *L.tulipifera*, eng yuqori ballga ega bo'ldi. Ushbu o'simliklar barcha bandlardagi ko'rsatkichlarda yuqori ekanligi bilan izohlandi.

XULOSALAR

“Samarqand shahrining dendroflorasi va istibolli manzarali daraxtlarning bioekologik xususiyatlari” mavzusidagi falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalar taqdim etildi:

1. Samarqand shahrining dendroflorasi o'rganilib, 128 turga mansub manzarali daraxtlar o'sishi aniqlandi. Ular 2 ta bo'lim, 29 oila, 60 turkumdan tashkil topgan. Shundan Pinophyta bo'limi 5 ta oila, 16 turkum hamda 34 tur, Magnoliaphyta bo'limi 24 oila, 44 turkum va 94 tur ekanligi aniqlandi. 22 turga mansub 700 dan ortiq asriy manzarali daraxtlar o'sayotganligi aniqlanib, koordinatalari olindi.

2. Geografik viloyatlar bo'yicha eng ko'p manzarali daraxtlar Eron-Turon (26 tur), Shimoliy Amerika-Atlantik (15 tur) hamda O'rtayer dengizi (14 tur) geografik viloyatlari florasiga mansubligi aniqlandi.

3. Fenologik kuzatishlar natijasida aniqlandiki, *Magnolia cylindrica* E.H. Wilson, *Cercis siliquastrum* L., *Paulownia tomentosa* (Thunb)Steud., erta bahorda gullaydigan manzarali daraxtlar qatoriga kiradi, *Albezia julibrissin* Durazz., *Styphnolobium japonicum* L. uzoq muddat gullaydigan, *Liriodendron tulipifera* L. 25-30 kun, *Magnolia grandiflora* L. 25-30 kun davomida gullashi aniqlandi.

4. Urug'ning unuvchanlik ko'rsatkichlari *Platyclusus orientalis* L., *Acer platanoides* L., *Paulownia tomentosa* (Thunb)Steud. daraxtlarida 80-90% *Picea abies* (L.) H.Karst., daraxtlarda 70-80%, *Albizia julibrissin* Durazz., *Koelreuteria paniculate* Laxm. daraxtlarda 60-70%, *Juniperus virginiana* L., *Catalpa bignonioides* daraxtlarda 50-60% ni tashkil etdi. *Cedrus libani* A.Rich., *Tilia cordata* 40-50% *Magnolia grandiflora* L., daraxtlarda 30-40% *Liriodendron tulipifera* L. daraxtlarida 10-20% unuvchanlikka ega ekanligi aniqlandi.

5. Manzaralilik xususiyatlari bo'yicha 64% daraxtlar juda yuqori, 10% daraxtlar yuqori 26% o'rtacha manzaralilikga ega ekanligi aniqlandi. Manzaralilik xususiyati past bo'lgan daraxtlar uchramadi.

6. Manzarali daraxtlar orasida *P.abies* (L.) H.Karst., *A.hippocastanum* L., *Q.robur* L., *C. bignonioides* Walter., *P.orientalis* Endl., *K.paniculata* Laxm., *A.julibrissin* Durazz., *C.siliquastrum* L., *L.tulipifera* L., eng yuqori ballni tashkil etdi va Samarqand shahri uchun istiqbolli turlar sifatida ko'kalamzorlashtirishga tavsiya etildi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ № PhD.03/30.12.2019.В.02.08 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ САМАРКАНДСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ ИМЕНИ ШАРОФА
РАШИДОВА**

**САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ ИМЕНИ
ШАРОФА РАШИДОВА**

ОЧИЛОВ УЛУГБЕК АБДУХАМИДОВИЧ

**ДЕНДРОФЛОРА ГОРОДА САМАРКАНДА И БИОЭКОЛОГИЧЕСКИЕ
ОСОБЕННОСТИ ПЕРСПЕКТИВНЫХ ДЕКОРАТИВНЫХ ДЕРЕВЬЕВ**

03.00.05 – Ботаника

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО БИОЛОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Самарканд – 2024

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Министерстве высшего образования, науки и инноваций республики Узбекистан за номером В2021.3.PhD/В633.

Диссертационная работа выполнена в Самаркандском государственном университете имени Шарофа Рашидова.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский и английский (резюме)) размещён на веб-странице Научного совета по адресу (www.samdu.uz) и Информационно-образовательном портале «Ziyonet» по адресу (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель: Хайдаров Хислат Кудратович
доктор биологических наук, профессор

Официальные оппоненты: Мавлонов Худорган
доктор биологических наук, профессор
Байсунов Бабир Хидирович
кандидат биологических наук, доцент

Ведущая организация: Национальный университет Узбекистана

Защита диссертации состоится 4 декабря 2024 года в 10⁰⁰ часов на заседании Научного совета PhD.03/30.12.2019.B.02.08 при Самаркандском государственном университете имени Шарофа Рашидова. (Адрес: 140104, г. Самарканд, Университетский бульвар, дом 15. Актовый зал института биохимии Самаркандского государственного университета имени Шарофа Рашидова. Тел.: (+99866) 239-11-40; факс (+99866) 239-11-40; e-mail: devonxona@samdu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Самаркандского государственного университета имени Шарофа Рашидова (зарегистрировано под номером 120) Адрес: 140104 г. Самарканд, Университетский бульвар, дом 15. Центр информационных ресурсов, Тел.: (+99866) 239-11-51.

Автореферат диссертации розослан 05 ноября 2024 года.
(реестр протокола рассылки № 16 от 20 ноября 2024 года).



Т.Ф.Ражабов

Председатель научного совета по присуждению учёных степеней, д.б.н.

М.С.Кузиев

Учёный секретарь научного совета по присуждению учёных степеней (PhD), доцент

С.Х.Уроков

Председатель научного семинара при научном совете по присуждению учёных степеней, д.б.н., доцент

ВВЕДЕНИЕ (аннотация к диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В связи с ростом населения во всем мире, строительством новых городов, населенных пунктов, автомагистралей, а также быстрым развитием городской урбанизации исследования и эффективное использование декоративных деревьев являются одними из важнейших областей ботаники. На сегодняшний день сохранение биоразнообразия, охрана растительного мира, их целевое использование, озеленение, благоустройство новых территорий являются одними из актуальных вопросов. В связи с этим, при озеленении новых территорий, выявление декоративных растений, правильный подбор, сохранение, размножение видов деревьев и кустарников с высокими декоративными свойствами, изучение их биоэкологических особенностей имеет важное научно-практическое значение.

В ведущих мировых центрах проводятся научные исследования, направленные на размножение деревьев и кустарников с высокими декоративными свойствами в озеленении населенных пунктов и парков, разработке мероприятий по охране вековых деревьев, повышению их адаптивности в условиях интродукции. В связи с этим, большое значение дендрофлора имеет в обеспечении экологической чистоты, в озеленении различных парков, скверов, предотвращении негативных последствий глобальных климатических изменений очистке атмосферного воздуха, обеспечении промышленности и народного хозяйства возобновляемыми сырьевыми ресурсами. Особенно, отдельное внимание уделяется биоэкологическим характеристикам *Paulownia tomentosa* (Thunb.) И Steud., *Platanus orientalis* L., *Quercus robur* L., *Aesculus hippocastanum* L., *Catalpa bignonioides* Walter, *Platyclusus orientalis* Enl., *Ulmus densa* Litv., и ряду других перспективных декоративных деревьев, их размножению и выращиванию в различных экологических условиях, а также внедрению декоративных деревьев в озеленении и созданию плантаций.

